

TURIZM YO'NALISHIDA AMALGA OSHIRILANAYOTGAN YIRIK INVESTITSIYA LOYIHALAR

Xojimurod Xasanov To'ychiboy o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqoladi O'zbekiston Respublikasida turizm yo'nalishida amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalar va qanday loyihalar qaysi hududlarda amalga oshirilayotganligi haqida to'liq ma'lumotlar beriladi.*

Kalit so'zlar: *Mehmonxona majmuasi, Ekoturizm majmuasi, Yo'lbo'yi infratuzilmasi, Tibbiyot turizmi majmuasi, Ekoturizm maskani.*

Abstract: *This article provides complete information about major investment projects in the field of tourism in the Republic of Uzbekistan and which projects are being implemented in which regions.*

Key words: *Hotel complex, Ecotourism complex, Roadside infrastructure, Medical tourism complex, Ecotourism place.*

Аннотация: *В данной статье представлена полная информация о крупных инвестиционных проектах в сфере туризма в Республике Узбекистан и какие проекты в каких регионах реализуются.*

Ключевые слова: *Гостиничный комплекс, Экотуристический комплекс, Придорожная инфраструктура, Лечебно-туристический комплекс, Экотуристический комплекс.*

Xammaga ma'lumki O'zbekiston Respublikasi hukumati mustaqillika erishganidan so'ng har soha kabi turizmga ham o'z etiborini qaratib kelmoqda. O'tgan yillar mobatnida o'nlab yangi qaror va farmonlarning hukumat tomonidan tasdiqlanishi ham bunga misoldir. Mustaqillikdan so'ng ko'plab loyihalar chet el tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirildi va hozir ham bunga yetarlicha e'tibor qaratilib kelinmoqda. Chet el investitsiyalari deyarli hamma vaqt davlat siyosati va unung iqtisodiyoti uchun foydali bo'lib kelgan.

Shu kabi holatlardan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.07.2023 yildagi PQ-238-son "turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" qabul qilindi. Qrordan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatda turizmni rivojlantirish va chet el sayyohlar oqimini oshirishdir. Shu bilan birga qarorda O'zbekiston Respublikasida ko'plab yangi loyihalar amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

Loyhalar O'zbekiston Respublikasining Andijon viloyati, Buxoro Viloyati, Jizzax viloyati, Qashqadaryo viloyati, Navoiy viloyati, Namangan viloyati, Samarqand

viloyati, Sirdaryo viloyati, Surxondaryo viloyati, Toshkent viloyati, Farg'ona viloyati, Xorazm viloyati, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikalarda amalga oshirilishi belgilangan. Loyhalar nomlari bilan tanishiladigan bo'lsa, masalan:

- Qoraqalpog'iston Respublikalarda Mehmonxona majmuasi, Ekoturizm majmuasi, Ellikqal'a tumanida esa Aqchako'l bo'yida mehmonxona, restoran, fitnes klub va suvda dam olish xizmatlari tashkil etish.
- Andijon viloyatida Ko'ngilochar maskan va Mehmonxona majmuasi qurilishi belgilandi.
- Jizzax viloyatida Ekoturizm va ko'ngilochar maskan va Mehmonxona majmuasi qurilishi belgilandi.
- Buxoro Viloyatida Mehmonxona majmuasi qurilishi belgilandi.
- Qashqadaryo viloyatida Dor yo'li, Turizm majmuasi va Mehmonxona majmuasi qurilishi belgilandi.
- Navoiy viloyatida Zamonaviy turizm majmuasi va Yo'lbo'yi infratuzilmasi qurilishi belgilandi.
- Namangan viloyatida Ekoturizm majmuasi va Ko'ngilochar maskan qurilishi belgilandi.
- Samarqand viloyatida Ekoturizm loyihasi, Mehmonxona majmuasi va Tibbiyot turizmi majmuasi qurilishi belgilandi.
- Sirdaryo viloyatida Tibbiyot turizmi majmuasi va Mehmonxona qurilishi belgilandi.
- Surxondaryo viloyatida Turistik majmua, Mehmonxona majmuasi va Dam olish maskani qurilishi belgilandi.
- Toshkent viloyatida Bolalar intellektual sport-sog'lomlashtirish va dam olish maskani, Mehmonxona va dam olish maskani va Dam olish maskani qurilishi belgilandi.
- Farg'ona viloyatida Milliy hunarmandchilik va turizm markazi, Hunarmandlar uyi, Ko'ngilochar maskanlari qurilishi belgilandi.
- Xorazm viloyatida Ekoturizm majmuasi va Ekoturizm maskani qurilishi belgilandi.
- Toshkent shahrida ham ko'plab loyhalar qilinishi belgilab qo'yildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak mamlakatda turizm infratuzilmasini rivojlantirish davlat hukumati tomonidan qo'llab quvvatlanmoqda. Hududlarda qilinayotgan investitsion loyhalar mamlakat iqtisodi ko'tarish bilan birga mamlakat aholishini ish bilan ham taminlaydi. Qo'shimcha qilib shuni aytish kerakki ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 27.07.2023 yildagi PQ-238-son qarori bandlari asosida tayyorlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 27.07.2023 yildagi PQ-238-son "turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori.
2. Шввкат Мирзиёев. <Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегияси>."O'zbekiston": Т. -2022.